

---

## RASMIY MUNOSABAT

“Renessans TV” telekanalining “Ovoza” informatsion dasturi orqali efirga uzatilgan Rishton tumanining “Xojiqishloq” mahalla fuqarolar yig’iniga bag’ishlagan “Muammo hal bo’lmadi” nomli videolavha yuzasidan Rishton tumani hokimligi quyidagilarni ma’lum qiladi. O’tgan 2022 yilning 22 yanvar kuni Xoji qishloq mahalla fuqarolar yig’ini fuqarolar tomonidan yo’llarni shag’allashtirish va elektr ta’minoti masalasida murojaat qilishgan edi. Ushbu murojaatga asosan, tuman hokimi ikchi ko’chalarni shag’allashtirish ishlari uch kunda hal etishini ta’kidlagan edi. Va’da berilganidek, oradan uch kun o’tib, 25 yanvar kuni tuman hokimining tashabbusi bilan ushbu mahallaning 2 kmdagi ichki ko’chalarida shag’allashtirish va yaroqsiz sim uzatgichlar o’rniga yangi temir biton tayanchlari o’rnatish ishlari amalga oshirildi. Ushbu jarayonlar bilan tanishish maqsadida hatto jurnalistlar uchun press tur ham [tashkil etilgandi](#). Unda mahalla fuqarolari tuman mutassadilariga minnatdorchilik izhor [etishgan edi](#).

Umuman olganda, keyingi yillarda tumanimizning barcha joylarida obodonchilik, bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda yo’llar qurish, mavjud yo’llarni ta’mirlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo’nalishda ham tumanimizda salmoqli ishlar olib borilayotgani hech kimga sir emas. Fuqarolarning ikkinchi masala elektr ta’minotini yaxshilash borasidagi murojaatlari aytilgan muddatdan biroz kechikdi. Buning o’ziga xos sabablari mavjud bo’lib, bu borada tuman elektr tarmoqlari korxonasi quyilarini ma’lum qildi. Rishton tumanining “Xojiqishloq” mahalla fuqarolar yig’ini hududi 10 kVli “Uyrat” elektr uzatish tarmog’iga ulangan 136-sonli transformator punkti orqali elektr energiyai bilan ta’minlanadi. Ushbu hududni elektr ta’minotini yaxshilash maqsadida Rishton tuman elektr ta’minoti korxonasi tomonidan hududdagi elektr uzatish tarmoqlari hamda mavjud elektr qurilmalar to’liq ko’rikdan o’tkazilgan va Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan, 2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan 72-sonli Qarorga muvofiq dasturga kiritilgan. Loyihaga ko’ra, hududdagi mavjud 136-sonli transformator punktiga qo’shimcha 1 dona quvvati 250 kVA bo’lgan yangi transformator punkti, 110 ga yaqin yangi temir-beton tayanchlar o’rnatilishi, 3,0 km uzunlikdagi elektr uzatish tarmog’ini qurish rejalashtirilgan.

Mutaxassislar tomonidan shu kunga qadar hududga yetkazilgan 104 dona yangi temir-beton tayanchlari o’rnatilgan hamda mazkur jarayon bosqichma-bosqich davom etmoqda. Tez orada yuqorida ta’kidlab o’tilgan loyihaga ko’ra rejalashtirilgan amaliy ishlar yakuniga yetkazilib, yangi tarmoq to’liq foydalanish uchun iste’molchilarga topshiriladi.

Bundan tashqari qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda ushbu hududdagi iste’molchilar tomonidan ko’chani tashqari tomoniga ya’ni o’z xonadonidan belgilangan qismidan tashqarisiga ekilgan daraxtlarni kesishda muammolar yuzaga kelib, ushbu hududda qurilish-montaj ishlari amalga oshirishda to’sqinliklarga sabab bo’lib, bajarish muddatiga o’z ta’sirini o’tkazdi. Ushbu muammolardan 2-sektor rahbari tuman Prokurori xabardor bo’lgach, muammolar sektor rahbari tomonidan joyiga borib, ijobiy hal qilib berildi. Ayni damda ushbu mahallada ishlar yakuniga yetkazilmoqda. Tez orada Qahramon ko’chasida yashovchi fuqarolarning ikkinchi murojaati ham ijobiy hal etiladi.

Shuni qo’shimcha qilish joizki, “Renessans TV” telekanalining “Ovoza” informatsion dasturi orqali efirga uzatilgan ushbu lavha 2022 yilning noyabr oyida tasvirga olingan bo’lib, oradan shuncha vaqt o’tib efirga uzatildi. Shu bois, fuqarolarning tomonidan bildirilgan fikrlarning ayrimlari 5 yanvar kuni efirga uzatilgan videolavhadagi so’zlar bugungi jarayonlarga to’g’ri kelmaydi.

2023-01-06 16:20:56